



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Таҳририят манзили:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **O.X.Xamidov**
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 **O.R.To'xsanov**
Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 **G.O.Hasanova**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 **M.M.Nigmatova**
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 **G.Kamilova, G.Kurbonova**
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 **Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova**
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 **S.S.Avezov**
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 **G.U.Umarova**
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 **D.Sh.Mirzayeva**
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 **D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva**
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 **M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva**
Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 50 **G.Sh.Rahmonova**
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 **M.B.Sharipova**
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 **G.B.Эргашева**
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 **C.Д.Ниязова**
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 **Л.Г.Расулова**
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 **Sh.Sh.Nizomova**
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda to'vus tizimini shakllantirish
- 78 **И.Х.Ражабова**
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 **Н.А.Хамраева**
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 **N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova**
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

KASBG A YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 **Г.Д.Ниязова, Н.Икрамова**
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОО
- 99 **L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova**
Математика mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 **F.F.Nurullayev, N.A.Ukrumova**
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 **Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova**
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



SHAXS KAMOLOTIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING MA'NAVİY-AXLOQIY VA PEDAGOGIK KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

G.Sh. RAXMONOVA,
BuxDU o'qituvchisi

O'qituvchi – jamiyatda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan shaxsdir. U o'zining notiqligi, jamoatchiligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu maqolada «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalari, ta'limni tashkil etish yo'nalishida jahon miqyosida erishilgan yutuqlar, o'qituvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish muammosiyorilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, kasbiy ta'lim, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, moddiy va ma'naviy meros, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya.

Учитель - это человек, который занимает особое место в обществе. Он выделяется на фоне остальных своим красноречием и публичностью. В данной статье описаны положения Закона Республики Узбекистан «Об образовании», мировые достижения в организации образования, проблема формирования высокой нравственно-педагогической культуры у педагогов.

Ключевые слова: непрерывное образование, профессиональное образование, национальные и общечеловеческие ценности, материальное и духовное наследие, духовное воспитание, нравственное воспитание.

A teacher is a person who has a special place in society. He stands out from the rest with his eloquence and publicity. This article describes the provisions of the Law of the Republic of Uzbekistan «On Education», the world achievements in the organization of education, the problem of forming a high moral and pedagogical culture in teachers.

Key words: continuous education, vocational education, national and universal values, material and spiritual heritage, spiritual education, moral education.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy moddiy va ma'naviy merosimiz, hozirgi zamon ilm-fani iqtisodiyoti, texnikasi va texnologiyasi erishgan yutuqlarga asoslangan ta'lim tizimini barpo etish maqsadida "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ta'limda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida davlat siyosatining asosiy printsiplari belgilandi.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalari, ta'limni tashkil etish yo'nalishida jahon miqyosida erishilgan yutuqlar, milliy tajribaning tahlili asosida tayyorlangan. «KTMD» raqobatbardosh kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.



O'qituvchida shaxsga va jamoaga ta'sir o'tkaza olish malaka va ko'nikmasini ijodiy rivojlantirishni ta'minlovchi fanlarning nazariy asoslarini egallash o'qituvchi mahoratining shakllanishida asos bo'ladi.

Prezidentimiz tomonidan oliy ta'lim tizimi sohasida o'rta qo'yilayotgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida tarbiyadan kutilayotgan maqsadlarga erishish o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar va barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Xalqimizning kelajagi, mustaqil davlatimizning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. So'ngi yillarda oliy uquv yurtlarida, universitetlarda o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Chunki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosga doir fanlarni chuqur o'rganish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish masalalariga e'tibor kuchaydi. Respublikamizda uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi. Butadbirlar universitet va pedagogika institutlarining maxsus fakultetlarida, malaka oshirish institutlarida amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev "O'qituvchi – jamiyatdagi yengil kasb yegasi bo'lishi dardkor. Buning uchun barcha choralar ko'riladi. Zero, jahondagi yengil rivojlangan davlatlardan hisoblangan Yaponiya, Singapurda aynan shunday yondoshuv tufayli ular jadal taraqqiy etgan. O'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman" – deb alohida ta'kidlab o'tdilar.

Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini boshqaruvchi rahbar xodimlar, o'qituvchi – tarbiyachilar shaxsining g'oyaviy – siyosiy sifatleri quydagicha bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

– G'oyaviy – siyosiy e'tiqod, fidoyilik, printsiptallik, siyosiy savodxonlik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy burchni anglaganlik, ijtimoiy fikrlash, tashkilotchilik, tadbirkorlik;

– Kasbiy – ixtisosiy hislatleri: kasbiy yetuklik, mustaqillik, bilimdonlik, aqlning tanqidiyligi, axborotlarni tahlil qilish, o'z fikrini ifodalay olish, pedagogik ilmiy – tadqiqot ishlari o'tkazishga moyillik;



– Hissiy va axloqiy fazilatlar: vatanparvarlik, oʻziga va oʻzgalarga talabchanlik, kamtarlik, oʻzgalarni hurmat qilish, oʻziga ishonch, ibolilik, halollik, adolatlilik, samimiylilik, begʻarazlik, vijdonlilik, hulk - madaniyati va odobi, hamdardlik, oqilona baholash, yumor hissi, dilkashlik, oʻzini kamol toptirish, bilimga chanqoqlik, zamonaviylilik, oʻzini tuta bilish, oʻz manfaatini ustun qoʻymaslik, axloq qoidalariga rioya qilish;

– Maxsus qobiliyatlari: iymon - eʼtiqodlilik, tashkilotchilik, nutqiy qobiliyat, sezgirlik, muomala madaniyati, diqqatni yoʻnaltirish, aniqlik, holislik, safarbarlik;

– Tashkilotchilikdagi individual farqlari: psixologik tanlovchanlik, amaliy aql-zakovat, psixologik nazokat, ijtimoiy gʻayratlilik, tanqidiylilik, umumiy qiziquvchanlik, shaxsiy motivatsiya va individual ish uslubi, mantiqiy saloxiyat, tashkilotchilikka uzluksiz moyillik, uyushqoqlik, mustaxkam iroda va boshqalar.

Oliygozlarda maktabgacha pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi singari fanlardan talabalarga bilim berish jarayonida yuqoridagi hislatlarga ega boʻlgan rahbar, muallimlarni maxsus tayyorlamasdan turib yuksak samaraga erishib boʻlmaydi. Buning uchun esa, eng avvalo, hayotiy malakalarni shakllantiruvchi, kommunikativ, shaxslararo munosabatlarga kirishishga oʻrgatuvchi, qaror qabul qilishga, muammoni hal etishga undovchi, sogʻlom turmush tarzini saqlovchi, qobiliyatlarni rivojlantiruvchi, inson kamolotiga koʻmaklashuvchi treninglarni qoʻllash lozimdir.

Oʻqituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdur. Yaxshi oʻqituvchi boʻlish uchun pedagogik nazariyani egallashning oʻziga yetarli emas. Chunki, pedagogik nazariyada bolalarni oʻqitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy gʻoyalar bayon etiladi. Oʻqituvchilik vatanga muhabbatdan boshlanadi. U oʻz xalqining muxtor vakili, buyuk gʻoyalar uchun ayovsiz, murosasiz kurashchidir.

Oʻqituvchining jamiyatda tutgan oʻrni benixoyat kattadir. Koʻpchilik – maktabda yaxshi oʻqituvchi ishlashi kerak, – degan fikrda. Yaxshi oʻqituvchi... Bu tushunchada qanday maʼno mujassamlashgan? Albatta, bunda oʻqituvchining oʻz vazifasini juda yaxshi bajarishi tushunilsa kerak. Shaxsning shakllanganligi, rivojlanganligi va tarbiyalanganligi darajasi, pedagogik mehnatning sifat koʻrsatkichi boʻlishi kerak. Bunga esa oʻquvchilarga pedagogik taʼsir koʻrsatish natijasidagina erishish mumkin. Oʻqituvchilik ishida maktabning asosiy maqsadi - gʻoyaviy ishonchlik, har tomonlama rivojlangan, Vatan ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilishga, kundalik hayotda axloq va maʼnaviyat normalarini tarkib



toptirishga qodir bo'lgan shaxsni tarbiyalash asosiy yo'nalish bo'lishi lozim.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, miliy maktab va oliy ta'lim o'qituvchisi davlat tili sifatida o'zbek tilini, chet tillarini ham bilishi juda muhimdir. Pedagogik faoliyatga moyilligi va layoqati bor bo'lgan yoshlarni saralab, tanlab olishni yo'lga qo'yish darkor. Izlanuvchanlik, tadqiqotchilik ishi ham o'qituvchining kasbkor o'sishida eng samarali yo'ldir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, milliy maktab va oliy ta'lim o'qituvchisining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan diqqat e'tibor qaratilishini naqadar muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni hayotga tadbiq etish jarayonida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchining jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Tarbiyachi o'qituvchi tarbiya jarayonining tashkilotchilari hisoblanadi. Zamonaviy tarbiyachi o'qituvchi yoshlar psixologiyasini juda yaxshi bilmog'i kerak. U bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'ya bilishi, bolalar jamoasida ijtimoiy psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Ilg'or g'oyalar va yangiliklarning targ'ibotchisi bo'lgan ziyokor tarbiyachi o'qituvchi eng madaniyatli kishi bo'lib, bu fazilatlarni uning yurish turishida, fe'l-atvorida va kiyinishida, o'z oilasida, ish joyida kasbdoshlari va shogirdlari bilan madaniy muomala qilishida, jamoat joylarida o'zini tuta bilishida, nutq madaniyatida, adabiyot va san'at durdonalarini sevishi va ulardan foydalana bilishida, hayot, tabiat hamda odamlardagi go'zalliklarni seza bilishi va qadrlashida, xatti-harakatlarida o'z aksini topadi. Mana shu fazilatlarning barchasi o'qituvchining go'zal ichki dunyosining tashqi ifodasidir.

O'qituvchidan nafaqat bilimdon insonlarni, balki, eng avvalo ana shu bilimlarni egallashni o'zining burchi deb biluvchi milliy qadrlar shaxsini shakllantirish talab etilmokda. Xozirgi davrda ushbu masalalar davlatimizning milliy istiqloli, mafkurasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi oldiga ko'yilgan dolzarb buyurtmasi bo'lib turibdi. Mana shuning uchun ham o'qituvchi nafaqat matematika, tabiatshunoslik, adabiyot va boshqa fanlarni chuqur va har tomonlama bilishi, balki tarbiyaviy jarayonning mohir tashkilotchisi ham bo'la olishi lozim.

O'qituvchilarning ish rejaları, tarbiyaviy soatlar tematikasida milliy axloqiy mavzular, tadbirlar xozircha aniq bir maqsadga yo'naltirilmagan, tizimlashtirilmaganligi sababli milliy tarbiyaviy maqsadga erishish yo'lida olib borilayotgan ishlar yetarlicha samara bermayapti. Sabab: umumta'lim maktablari



sinf rahbarlarining milliy tarbiyaviy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chikilmaganligida. Demak, sinf jamoasida milliy g'urur, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, mafkuraviy onglikning shakllanganlik darajasi kabi o'qituvchining milliy tarbiyachi sifatidagi faoliyatining modeli, ko'rsatkichlarini asoslab bermoq kerakligi o'z – o'zidan ko'rinib turibdi. Natijada ushbu ko'rsatkichlarning to'rt darajadan iborat mezonlari belgilandi. Ya'ni, sinf rahbarlarining milliy tarbiyaviy faoliyati samaradorligining ko'rsatkichlari – yaxshi, qoniqarli, past va yuqori darajalari aniqlanadigan bo'ldi.

Faoliyati yuqori va yaxshi darajada baholangan sinf rahbari: milliy mafkuraviy onglik, faol axloqiylik, ijtimoiy faollilik, ijtimoiy tafakkur, topqirlik, pedagogik odob, talabchanlik, vijdoniylik, adolatparvarlik, tadbirkorlik, o'zini idora qila olish, ko'tarinki ruh, bolalarga mexrlilik kabi sifatlardir.

Faoliyati qoniqarli va past darajada baholangan sinf rahbarlarining sifatlari: - milliy tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslari haqida bilimlarining bo'shlig'i, intellektual cheklanganlik, o'quvchilarning milliy fazilatlariga befarqlik, o'quvchilar bilan muloqotga kirishib, ularni o'ziga ergashtira olmaslik, odamoviylik, irodasizlik, o'quvchilarga zarda qilish, so'zga, nasihatga ortiqcha berilganlik, ba'zi hollarda pedagogga xos bo'lmagan nomunosib hislatlarni ham uchratish mumkin. Albatta, bunday sinf rahbarlari orasida o'z fanining bilimdonlari ham uchrab tursada, bu ularning milliy tarbiya tashkilotchisi sifatidagi bilim, ko'nikmalar darajasiga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, O.To'rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika.Darslik T.:O'qituvchi 2008-yil
2. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil
5. Curriculum,cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany 2012-y.



O'QUVCHI-YOSHLAR TARBIYASIDA O'LMAS AN'ANA VA MAROSIMLARNING AHAMIYATI

M.B.SHARIPOVA,
BuxDU o'qituvchisi

Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo'lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtai nazaridan o'rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

В статье рассматриваются отношения между церемониями и эпосами, естественное выражение церемоний, изучение этого лирического наследия с точки зрения его художественного, эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка.

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклор ведение, любовь, национальная культура, церемония, отношении церемония и эпос.

The article discusses the relationship between ceremonies and epics, the natural expression of ceremonies, the study of this lyrical heritage in terms of its artistic, aesthetic and poetic thinking in terms of artistic language.

Key words: the folk poem, folklore, folklore, love, national culture, eremony, relationsceremony and poem.

Milliy epik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanalanadi. Marosimlarga aloqador urf-odat va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan, doston kuylashning marosimlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. Binobarin, "Alpomish" dostonida ham buning yorqin guvohini ko'rish mumkin. Rus folklorshunosi B.Putilov "Epos va marosim" masalasiga alohida e'tibor qaratar ekan, ularning bir-biriga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi.[1,76b] Darhaqiqat, dostonlar syujetiga nazar tashlansa, B.Putilovning haq ekani ko'rinadi. Bunda garchi olim o'z ilmiy xulosasini, asosan, rus eposchiligi nuqtai nazaridan ilgari surgan bo'lsa-da, uning bu fikrini hatto o'zbek dostonchiligi ham tasdiqlay oladi. Chunki qaysi bir o'zbek xalq dostoniga e'tibor qaratmaylik, unda, albatta, biror-bir oilaviy-maishiy marosim badiiy ifoda etilganligining, ya'ni tasvirlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda folklorshunos J.Eshonqulov: "Shuni aytib o'tish kerakki, eposning, ayniqsa,